

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA NAVOIY AN’ANALARI

Bekposhsha Bahodirovna RAHIMOVA,

filologiya fanlari nomzodi,

Urganch davlat universiteti dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15291020>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko‘p qirrali ijod sohibi – shoir, tarjimon va publitsist Matnazar Abdulhakim adabiy merosida Alisher Navoiy ijodiga izdoshlik masalasi tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: doston, lirik qahramon, falsafiy-intellektual mavzu, inson mohiyati, umr mazmuni, badiiy mahorat, ramziylik, obraz, adabiy jarayon.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос следования творчества Алишера Навои в литературном наследии многогранного поэта, переводчика и публициста Матназара Абдулхакима.

Ключевые слова: эпос, лирический герой, философско-интеллектуальная тема, человеческая сущность, смысл жизни, художественное мастерство, символика, образ, литературный процесс.

Abstract: This article analyzes the issue of following the work of Alisher Navoi in the literary heritage of the multifaceted poet, translator, and publicist Matnazar Abdulhakim.

Key words: epic, lyrical hero, philosophical-intellectual theme, human essence, meaning of life, artistic skill, symbolism, image, literary process.

Adabiy jamoatchilik tomonidan “donishmand shoir” (A.Oripov), “Navoiy yo‘lidagi shoir” (E.Vohidov) deya e‘tirof etilgan Matnazar Abdulhakim hazrat Navoiyning chinakam muxlisi va shoir asarlarining tom ma‘nodagi bilimdoni edi. “Matnazar Abdulhakim badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkoridir. Uning she‘rlarida yuksak estetik didi, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko‘rinsa, ilmiy ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o‘tmish badiiy yozma qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyondir” [Abdullayev H.1:4]. Bolaligidan adabiyotga, san‘atga, she‘riyatga bo‘lgan kuchli mehr Matnazar Abdulhakimda, ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotiga qiziqish hissini ortishiga sabab bo‘lgan. Shoir ijodiy faoliyati davomida Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro, Mirzo Bedil, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy kabi ijodkorlar asarlaridan ilhom oldi, bu bebaho durdonalarini tarjima qildi. Matnazar Abdulhakimdagi bu ijodiy yondashuv o‘z navbatida shoir she‘riyatning falsafiy mazmunini yanada chuqurlashishiga, yuqodida ta‘kidlab o‘tganimizdek, “donishmand shoir” darajasida e‘tirof qilinishiga zamin bo‘ldi. Zero, Matnazar Abdulhakim shoir sifatida tanilish barobarida mumtoz adabiyot bilimdoni hamda mohir tarjimon sifatida ham o‘ziga xos o‘ringa ega ijodkor edi. Shoir Navoiy va Ogahiy g‘azallarini chuqur tahlil qilar ekan,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ulardagi ma’no tovlanishlarini kitobxonga uqtirishga harakat qiladi. O‘zining ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatida doim shu ikki ulug‘ siymo, daho shoirlar asarlaridan ilhom va rag‘bat olgan. Jumladan, bu boradagi bir adabiy suhbatda “Ogahiyning shoirlik sifati, Navoiydan keyingi ulug‘ turkiygo‘y shoir rutbasi haqida sizning qarashingiz? – degan savoliga Matnazar Abdulhakim: “Ogahiy merosi bitmas-tuganmas ma’naviy tarbiya o‘chog‘idir, mahorat maktabidir, bilimlar konidir. Biz qanday yuksaklikni egallamaylik, qanday teranlikni zabt etmaylik, Ogahiy maktabining kamtarin bir o‘quvchisiligicha qolaveramiz. Ogahiy nazmiy ijodining bir bayti ham Navoiy baytidan holi emas. Navoiydek behudud ummon shovullab turgan zaminda Ogahiy ummonining to‘lqin tovushlari ham quloqqa baralla eshitilganidan, ko‘zga yaqqol tashlanayotganidan mamnunman”[Abdulhakim M. 2:19], - deb javob bergan edi. Bundan ko‘rinadiki, Matnazar Abdulhakim Navoiy va Ogahiy ijodini o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga yaqin, lekin o‘ziga xos shaxsiy yondoshuvlar bilan bog‘laydi. Navoiy o‘zining lirik asarlarida inson kamolotiga xizmat qilivchi ulug‘ va ma’naviy jihatdan boy ma’naviy ummonni tasvirlagan bo‘lsa, Ogahiy esa shuningdek, bu ummonning to‘lqinlari va tovushlarini tinglash orqali hayotning chuqur qatlamlarini anglashni targ‘ib etadi. Matnazar Abdulhakim Navoiy va Ogahiy ijodini o‘zaro muvofiqlashtirgan holda, ularning betakror ijodi bir-birini to‘ldirib, xalqimizning ma’naviy hayoti uchun qimmatli bir boylik ekanligini ta’kidlaydi.

Matnazar Abdulhakimning Alisher Navoiy ijodi haqidagi maqolalari, tadqiqotlarida har bir manbaga ijodiy yondashishi, shoirona lutf va nigoh bilan tahlil qilishi, ilmiy va publitsistik tahlil uyg‘unligi ustuvorlik qiladi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan 2022-yilda nashr qilingan “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” nomli to‘plamda Matnazar Abdulhakimning “Hayrat mezonni” (Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar) nomli risolasining kiritilgan bo‘lib, unda shoirning Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlari berilgan. Matnazar Abdulhakimning “Abadiy hamdard”, “Xolu xatting”, “Yulduzlardan olingan ibrat”, “Ilohiy halqa”, “E’tiqodning zafaron malhamlari”, “Hayrat mezonni” kabi maqolalarida Navoiy hazratlarining qator g‘azallari tahlilga tortiladi.

Shoirning Navoiy ijodi haqidagi maqolalari tahliliy xarakterda bo‘lib, talqinlarda mutafakkir ijodkorning betakror iste’dodi, mahorati e’tirof etiladi, ulug‘lanadi. Jumladan, “Matnazar Abdulhakim so‘zdagi sehr, she’rdagi hikmat mohiyatini chuqur anglagan she’r ilmi bilimdoni va nuktadon munaqqid ham edi. Bu hol muallifning so‘z va shoirlik xususidagi badiiy-estetik qarashlarida yaqqol ko‘rinadi. Bu qarashlar, o‘z xarakteriga ko‘ra, shoirning badiiy so‘z, nafasat,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

go‘zallik, ijodkor iqtidori haqidagi sub’ektiv fikrlari hissiy-emotsional tarzida ifoda etiladi. Matnazar Abdulhakim talqinida so‘z va shoirluk tushunchalarini yaxlit anglash asosida badiiy ijodning ijtimoi-estetik mohiyatini ifodalashga, publitsistik fikr va obrazlilik diffuziyasiga erishiladi “[G‘aipova H. 4:76]. Navoiy ijodiyotini o‘rganar ekan, Matnazar Abdulhakim so‘zdan so‘zga, g‘azaldan g‘azalga o‘tib bordi, yangidan yangi ma‘no qirralarini kashf etdi. “Ilohiy diydor yoki bir g‘azal sharhi” deb nomlangan maqolasida Matnazar Abdulhakim Alisher Navoiyning “O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur” deb boshlanuvchi g‘azalini sharhlaydi. Shoir hazrat Navoiyning bu mashhur g‘azali haqida fikr yuritar ekan, daho ijodkorning har bir inson shaxsiga naqadar buyuk ahamiyat berganligi, inson elkasiga qanchalik zalvorli yuk ortganligini ta’kidlab o‘tadi. “Biz har lahzada dunyoga necha minglab odamlar kelishi va har lahzada qanchadan-qancha go‘zallar o‘n sakkiz yoshga qadam qo‘yishlarini, bir o‘ylasak va har bittasining boshida o‘n sakkiz ming olamda sodir bo‘layotgan g‘alayonlar mavjudligini fikr qilsak, bularning barchasi va bulardan tashqari Navoiy lirik qahramoni tomonidan vasf etilayotgan o‘n sakkiz ming olam muammolarini o‘z boshiga jam qilgan mahbubaning zohiriy va botiniy ko‘rki naqadar betimsol ekanligi ayon bo‘ladi”- deydi shoir.

Matnazar Abdulhakimning “Lahzadagi manguilik” nomli maqolasi ham adabiyotshunoslik tarixi, ayniqsa, navoiyshunoslik bobida ma‘lum darajada yangicha tashlangan qadam bo‘ldi. Muallif maqolada hazrat Navoiyning vaqt haqidagi poetik mulohazalari bilan o‘quvchi oshno qilinadi. Alisher Navoiy inson umrining o‘tkinchi ekanligini ta’kidlarkan, she’rxonni elib borayotgan vaqtni e‘zozlashga da’vat etadi, o‘tayotgan vaqtning qadriga etib, bizni yana ham faolroq bo‘lishga, umrning o‘tkinchiligini anglab, boqiy qoladigan ishlarni amalga oshirmoqqa, ya’ni ezgulikka da’vat qiladi, - deydi shoir o‘z mulohazalarida.

Matnazar Abdulhakim Navoiyning barcha doston va she’rlarini ko‘p mutolaa qilar, mag‘zini chaqishga intilib, ulardan ilhomlanar edi. Jumladan, “Behi” she’rida shoir yor keltirgan bir juft behi timsolida katta hayotiy ma‘no topadi: behi go‘zal umr ramzi, uning sariq rangi -ishq iztirobi, juftligi- diydorlashuv, mevasi-ezgu murod hosili.

Bir juft behi keltirgan eding,
Bir-biridan xushbo‘y, muattar.
Men ularni qattiq sog‘indim
Va sarg‘aydim behidan badtar.
Xayolimda boshqa mevalar

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ming bor inkor, ming bor rad bo’ldi.

Dunyoda bor hikmat yakuni

Juft behidan iborat bo’ldi.

Shoir she’rida “juft behi” timsolida “dunyodagi bor hikmat yakuni – oila, oshiq-ma’shuqlar juftligi nazarda tutiladi. Behilarni “Qattiq sog’ingan” lirik qahramon ishq dardida “behidan badtar sarg’ayar” ekan, shoir sariq rang talqinidagi an’anaviy ma’noga Navoiyni quyidagi bayti orqali ishora qiladi.

Behi rangidek o’lmish dardi hajringdin mango siymo

Dimog’im ichra har tuxmi yanglig’ donai savdo

Ko’rinadiki, oshiqning ichidagi qora dog’lar ham muhabbat tuyg’usini paydo qiladigan ishq tuxmidirki, meva hamda insonning mushtarakligi faqat suvratda emas, siyratda ham zohir bo’lmoqda .

“Donai savdo”qora donalar behining urug’i bo’lsa oshiqda bu - dard dog’laridir. Ma’lumki, behining ichidagi qaro urug’lardan daraxt unib chiqadi, nasl ko’payadi. Oshiqning ichidagi qaro dog’lar ham muhabbat tuyg’usini kuchaytiradigan, binobarin, boshqalarning ruhiyatiga ta’sir qilib, ularda ham muhabbat tuyg’usini paydo qiladigan ishq tuxmidirki, meva hamda insonning mushtarakligi faqat suvratda emas, siyratda ham zohir bo’lmoqda.

Shoir “Navoiyni o’qib” sarlavhali she’rida: “Ming mashaqqat bilan chiqdim men, Qirq yil tirmashdim bu cho’qqiga” – deb yozadi. Haqiqitda ham shoirning Navoiy g’azallariga yozgan sharhlari, uning buyuk mutafakkir ijodini chuqur o’rganganligidan dalolatdir.

Matnazar Abdulhakimning hazrat Navoiyning “Xamsa” dostonlariga yuksak muhabbati bor edi, shu sababli bu sohadagi faol bardavomlikni ko’ramiz. Bu hol shoir dostonlarida ham ko’rinadi. Masalan, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni bilan M.Abdulhakimning “Ko’prik” dostonida ayrim mushtarak va xos jihatlar namoyon bo’ladi: 1) Har ikkala asarda ham epik ko’lam kengroq bo’lib, adolat, raiyatparvarlik va shafqat motivlari oldingi o’ringa chiqarilgan; 2) Shoh Iskandar va Xonqa hokimi Muhammad Aminiddin obrazlarida realistik va qisman romantizm unsurlari tabiiy omuxtalanib, muxlislarda samimiyat uyg’otadi; 3) Navoiy dostonida Iskandar talqinidagi qistirma hikoyatlar M.Abdulhakim asarida ham saqlanib, Polvon kanali, suv, aqlli eshak kabi bir qancha xalqona rivoyat va hikoyatlar keltiriladi; 4) Ustoz dostoni masnaviy yo’lida bir xil vaznda yozilgan bo’lsa, Matnazar Abdulhakim an’anadan biroz chekinib, o’z dostonini turli janr va vaznlarda, aruz va barmoq o’lchovlarida yozgan. Zero, buni asar xarakteri va uslub taqozo etgan; 5) qistirma

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

rivoyatlar nisbiy tugallikka ega bo‘lib, syujet tarkibida ikkinchi darajali atributlardir. Bular muallifning muayyan fikrlarini tasdiqlash, epik tasvirni kengaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Matnazar Abdulhakim she‘r va dostonlarida Navoiy dostonlari qahramonlari Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Mehnbonu, Bahrom, Dilorom nomlarining bot-bot tilga olinishida ham ma‘lum ma‘no-maqсад mujassami bor.

Matnazar Abdulhakimning “so‘z” haqidagi qarashlarida ham hazrat Navoiyga hamohanglik seziladi:

So‘z o‘rniga umrim berayotir ro‘y,
Aytilmagan so‘zdir qutlug‘ har lahza
Dard chekkan tabibim, endi bilib qo‘y,
Yo‘q men uchun so‘zdan og‘irroq narsa[5].

Bu to‘rtlikda shoir iste‘dodining yana bir qirrasini aks etgan. To‘rtta misraning uchtasida “so‘z” uchraydi. Yuqoridagi satrlar Navoiyning “Hayratul abror” dostoniga monand misralarni beixtiyor yodga keltiradi. Ustoz shoir “so‘z” iborasiga takror san‘ati asosida yondashib, uni ikki masnaviyda ham qo‘llaydi, faqat “ga”, “din” qo‘shimchalari mazmuniy urg‘u va ta‘kid, fikr davomiga ishora qiladi:

So‘z gavhariga erur oncha sharaf
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.
To‘rt sadaf gavharning durji ul,
Etti falak axtarining burji ul.

Shuningdek, Navoiyda “guhar”, Matnazar Abdulhakimda “ko‘ngil” kalomlarining “so‘z” o‘rnida faol iste‘foda qilinishi har bir ijodkor badiiy didining individualligidan nishonidir. Har bir ijodkorning ko‘p qo‘llaydigan obraz va tushuncha – so‘zi borki, u maqsadga ko‘ra ijobiy va salbiy ma‘nolarda ishlatadi.

Ko‘rinadiki, Matnazar Abdulhakim uchun Navoiy ijodi doimo ilhom manbai bo‘lgan. Umuman, Navoiyning ko‘p qirrali falsafiy-ta‘limiy saboqlaridan fayz va ilhom olib, unga maslakdosh va sobit izdosh bo‘la olgan zamondosh shoirimiz - Matnazar Abdulhakimo‘z asari bilan adabiy vorislikda ijodning uzviylik xarakterini, asrlararo takomillashib, yangilanib borishini ishonarli qo‘rsata olgan va izlanishlarida donishmandlik sari dadil borayotgan ijodkor qiyofasida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. Урганч. “Хоразм нашриёти”. 2018. 57 б.
2. Абдулҳаким М. Мангулик жамоли. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2009. – Б. 16.
3. Матназар Абдулҳаким. Ўртиқоднинг заъфарон малҳамлари// Хоразм ҳақиқати. 1998. 25 март.
4. Ғайипова Х. Теран тафаккур ва тиниқ туйғулар куйчиси. Урганч. 2019. Б. 76.